

ZULFIYA-SHE‘RIYAT OSMONING PORLOQ YULDUZI.



**Murodullayeva Zarnigor Baxtiyorovna.**

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili fakulteti 1 - bosqich talabasi.*

**Begmatova Sohiba Mustafoyevna**

*Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari doktori (PhD)*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada she‘riyat osmoning porloq yulduzi, nafosat va sadoqat timsoli bo‘lgan o‘zbek shoirasi- Zulfiyaning hayot yo‘li hamda ko‘pgina qalblarga yo‘l topgan she‘rlari haqida so‘z yuritiladi. Bunda shoiraning hayot yo‘lidagi qiyinchiliklari, she‘rlarining dunyo yuzini ko‘rishidagi bosib o‘tilgan qadamlar haqida ham ma‘lumot berib boriladi.

**Kalit so‘zlar:** Zulfiyaxonim, she‘riy to‘plamlar, hayot yo‘li, adabiyot olami, oila, yulduz.

**Annotation:** This article discusses the life path and widely admired poems of the Uzbek poet Zulfiya, who is regarded as a bright star in the sky of poetry and a symbol of grace and devotion. It also provides information about the difficulties she faced throughout her life and the steps she took on the journey toward having her poems published and recognized around the world.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются жизненный путь и стихи узбекской поэтессы Zulfiya, которую называют яркой звездой на небосклоне поэзии и символом изящества и преданности. Также приводится информация о трудностях, с которыми она столкнулась на своём жизненном пути, и о шагах, которые были пройдены на пути к публикации и признанию её стихов во всём мире.

**Kirish.**

Zulfiya Isroilova – taniqli va iqtidorli o‘zbek shoirasi. Yorqin rassom, oddiy inson qalbini o‘tkir his qilgan – mehnatkash, Sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavar kurashgan ayol. Zulfiya she‘riyatining nufuzi – bizning dabdabali murakkab davrimizning haqqoniy ifodasi, o‘ziga xosligi, zamondoshlarimizning qalbi va harakatlarining yorqin tasviridadir. O‘zbek xalqining atoqli va ardoqli vakili Zulfiyaxonim Isroilova 1915-yil 1-mart kuni Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tavallud topgan bo‘lib, avval boshlang‘ich maktabda, so‘ng xotin-qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1931-yil Xotin-qizlar pedagogika bilim yurtiga o‘qishga kirib, 1934-yil tugatgan. 1935-yil O‘zbekiston SSR Fanlar qo‘mitasi qoshidagi Til va dabiyot instituti aspiranturasiga o‘qishga kirgan. Maftunkor shoirimiz-Zulfiyaxonim Isroilova ijod yo‘li davomida “O‘zbekiston xalq shoirasi” (1965), “Sotsial Mehnat Qahramoni” (1984) “Do‘stlik” ordeni (1995) sohibasi bo‘lgan. Zulfiyaxonim “Samir” taxallusi ostida ijod qilgan. Shuningdek, shoira xalqaro “Javaharlal Neru” (1968), “Nilufar” (1971), mukofotlarini hamda Hamza nomidagi davlat mukofoti (1970) laureanti, Bolgariyaning “Kirill va Mefodiy” (1972) ordeniga va yana shu kabi ko‘plab mukofotlarga sazovor bo‘lgan. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston hukumati atoqli shoiraning madaniyatimiz taraqqiyotidagi katta xizmatlarini e‘tiborga olib, Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta‘sis etdi. Zulfiya nomidagi davlat mukofoti O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlaridan biri bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti - Islom Abdug‘aniyevich Karimovning “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta‘sis etish bo‘yicha takliflarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” 1999-yil 10-iyundagi farmoniga binoan ta‘sis etilgan. Mukofotlar soni 28 ta bo‘lib, adabiyot, madaniyat, san‘at, sport fan, ta‘lim, jamoatchilik va axborot texnologiyalari yo‘nalishida faolligini uchun topshiriladi. Zulfiyaxonim o‘zbek va rus tillarida ijod qilgan. Shoiraning ijod yo‘li haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, 1938-1940-yillarda Yoshlar va o‘smirlar adabiyoti nashriyotida muharrir, O‘zbekiston davlat nashriyotida bo‘lim mudiri (1941-1950), “O‘zbekiston xotin-qizlari” (“Saodat” jurnali) jurnalida bo‘lim mudiri (1950-1953), bosh muharrir (1954-1985) bo‘lib ishlagan. Uning ilk she‘ri 1931-yilda „Ishchi“ gazetasida bosilgan. Dastlab 1932 yil „Hayot varaqalari“ she‘rlar to‘plami nashr etilgan. Shundan keyin uning „Temiroy“ (1934), „She‘rlar“, „Qizlar qo‘shig‘i“ (1939) she‘riy kitoblari e‘lon qilingan. Zulfiya she‘riy ijodining porlashi „Uni Farhod der edilar“ (1943), „Hijron kunlarida“ (1944) va „Xulkar“ (1947) to‘plamlari bilan bog‘liq. Ayniqsa, Hamid Olimjonning bevaqt vafotidan keyin (1944) yozilgan, ruhiy silsilalar va qalb iztiroblari bilan to‘la she‘rlar Zulfiya ijodida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lganidan darak beradi. U shaxsiy fojiasi tasviri orqali Ikkinchi jahon urushidan katta talafot va yo‘qotishlar bilan chiqqan xalqning dard va alamlarini ifodaladi. 1940-yillar oxirida e‘lon qilingan Sovet Ittifoqining san‘at va adabiyot to‘g‘risidagi

qarorlari o‘zbek adabiyotiga ham katta zarar keltirdi. Zulfiya badbin kayfiyatlar — pessimistik kechinmalar kuychisi sifatida ta’na toshlari ostida qoldi. Shundan keyin u, boshqa qalamkash birodarlari singari, „davr g‘oyalari“ni ifodalovchi she’rlar yozishga o‘tdi. Lekin ko‘p o‘tmay, o‘zbek ayollari hayotini yaxshi biluvchi shoira va jurnalist sifatida dugonalari haqida she’r va publitsistik maqolalar yozdi, ularni ijtimoiy faollikka chaqirdi, insoniy haq-huquqlarining poymol bo‘lmasligi uchun kurashdi. 1950-yillarning 2-yarmida u Osiyo va Afrika yozuvchilarining tinchlik va xalqaro birdamlik shiori ostida o‘tgan harakatida faol qatnashib, jahonning ko‘pgina mamlakatlarida bo‘ldi. Hindiston, Misr, Yaponiya va qo‘shni respublikalarga qilgan safari shoira ijodida chuqur iz qoldirdi. „Mushoira“, „O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush“, „Qozog‘iston o‘lanlari“, „Men chizolmagan surat“ singari she’rlari Zulfiyaga shuhrat keltirdi. Zulfiya she’rlarida tasvir etilayotgan hayot ko‘lami kengayib, ijodiga xorijiy xalqlar hayoti manzaralari ham kirib keldi. 70-yil lardan boshlab uning ijodidagi milliy hayot tasvirida yangi ranglar kamalagi paydo bo‘ldi, haqqoniylik va his-hayajon kuchaydi. „O‘ylar“ (1965) she’riy guldastasi bilan boshlangan voqelikni falsafiy idrok etish tamoyili „Visol“ (1972), „Yillar, yillar...“ (1975) she’riy kitoblarida davom etib, shoira ijodida chinakam badiiy yuksalish davri boshlanganini namoyish etdi. U yana doston janriga qaytib, ustoz Oybekning so‘nggi safariga bag‘ishlangan „Quyoshli qalam“ (1970) dostonini yaratdi. Ayni paytda shoira bolalarga bag‘ishlangan turkum she’rlar ham yozdi („Lolaqizg‘aldoq“, 1975).

Zulfiya hayotining muhim bir qismini Hamid Olimjonning adabiy merosini o‘rganish va nashr etish ishiga bag‘ishladi. Ana shu jarayonning uzviy qismi sifatida u shoirning „Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod“ dostoni asosida qo‘g‘irchoq teatri uchun „Semurg‘“ pyesasi (S. Somova bilan hamkorlikda) hamda „Zaynab va Omon“ operasi librettosini yozdi. Zulfiyaxonimning hayot yo‘li mashaqqatlarga boy bo‘lgan. U 1935- yilda o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi, shoir va olim Hamid Olimjon bilan turmush qurgan. Ularning muhabbati samimiy va mustahkam bo‘lgan. Biroq, 1944-yilda Hamid Olimjon avtohalokat tufayli 35-yoshida vafot etadi. Bu voqea Zulfiyaxonim hayotidagi eng katta fojialardan biri bo‘lib, umrining oxirigacha vafodorlik va sog‘inch she’rlarini yozishiga sabab bo‘lgan. Shoiraning 2 ta farzandi bo‘lgan ular: qizi Hulkar va o‘g‘li Olimjon. Shoira turmush o‘rtog‘ining vafotidan keyin farzandlarini yolg‘iz voyaga yetkazgan. Oilada ijodiy muhit hukm surgan, uyga taniqli adiblar, shoirlar tashrif buyurishgan. Hamid Olimjon vafotidan keyin ham Zulfiya uning xotirasini ardoqlab, uning ijodini targ‘ib qilishni davom ettirgan. Zulfiyaxonim turmush o‘rtog‘ining fojiasidan so‘ng o‘zini butunlay ijodga va bolalar tarbiyasiga bag‘ishlagan. Bundan tashqari uning ikkita akasi bo‘lib, biri-Karimjon Isroilov va ikkinchisi- Normat Isroilov. Normat Isroilov NKVD Xorazm bo‘limida ishlagan. 1937-yil qatag‘onga uchrab, Toshkebtada otib tashlangan. Ma’lumotlarga qaraganda

shoiraningtarixchi va tarjimon nabirasi ham bor, u-Lola Muhiddinova. Zulfiyaxonim 1996-yil 1-avgust kuni (81-yoshida) Toshkent shahrida vafot etadi. Quyida siz Zulfiyaxonim ijodidan bir misra bahramand bo'lasiz:

**Bahor keldi seni so'roqlab...**

Salqin saharlarda, bodom gulida,  
Binafsha labida, yerlarda bahor.

Qushlarning parvozi, yellarning nozi,  
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...

Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,  
O'rik gullarining eding maftuni.

Har uyg'ongan kurtak hayot bergan kabi  
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.

Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,  
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.

Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,

Ul ham yosh to'kdi-yu, chekindi nari.

Manba <https://tafakkur.net/bahor-keldi-seni-soroqlab/zulfiya.uz>



**Xulosa:**

Zulfiyaxonimning hayot yo'lini o'rganar ekanmiz, uning bosib o'tgan yo'li qanchalar mushkulotlarga to'la ekanligiga amin bo'lamiz. Shunday bo'lsada, shoira oilasiga vafodor ayol bo'lgani tahsinga sazovor. Zulfiyaxonim Isroilova qablarda mangu yashaydi, uning she'rlari hardam she'rxonlar tilida yangraydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1-O‘zbek shoirasi Zulfiyaxonim hayoti va unutilmas ijodini “Zulfiyani eslab” mavzusi ostida yozilgan maqola-Shafoat Beknazarova 2020.

2-Sultonova M., Ijod sahifalari, Toshkent, 1975; Zulfiya [bibliografiya], Toshkent, 1977; Sultonova M., Zulfiya, Toshkent, 1985; Ibrohimov M., Quyoshli she‘riyat ijodkori, Toshkent, 1986; Ehtirom [nashrga tayyorlovchilar: Rahima Shomansurova, Ra‘no Rahmonova], Toshkent, 1995.

3-Naim Karimov. m. G. Gulyama, 1983.

4-Qayumov L. Shoiri Zulfiya. [Toshkent](#), O‘zadabiynashr, 1965.

5-Mirvaliev S. O‘zbek adiblari. Toshkent: [„Yozuvchi“](#), 2000.

6-Tanlangan asarlar (3 jildli), Toshkent, 1985.